



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI


2023- YIL YANVAR-NOYABR OYLARI




Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2023- yil yanvar-noyabr oylarida)

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 12 794,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqarish sanoati hissasiga toʻgʻri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 56,4 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 17,3 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 79,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat

mln. so'm

Yanvar-noyabr

FHI,% da



2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7218,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 56,4 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-noyabr


57,7 %

2023- yil yanvar-noyabr

56,4 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,7 % ni (2022- yilning yanvar-noyabr oylarida – 4,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,9 % (3,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 27,4 % (16,4 %) va quyi texnologiyalisi – 67,9 % (75,5 %) ni tashkil etdi.


■ 2022- yil ■ 2023- yil









Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 4,7 % (2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,8 %), boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 10,3 % (2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,0 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 37,9 % (2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 92,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 28,8 % (2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,7 % (2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 64,3 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da *



* Yanvar-noyabr oylari yirik korxonalar bo‘yicha

Aroq

Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar

Boshqa plastmassalardan (etilen polimerdan tashqari) qoplar va sumkalar

Paxta tolasi

Paxta chigiti

Kalava ip


2023- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 16,4 ming tonna boshqa plastmassalardan (etilen polimerdan tashqari) qoplar va sumkalar (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 0,6 % oshgan), 1,2 ming tonna paxta, bint va shu kabi mahsulotlar (1,3 % oshgan) hamda 20,3 ming tonna kalava ip (35,5 % ga oshgan) ishlab chiqarish va o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-noyabr	2023- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
<i>Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa, tonna</i>	18503	3072	-15431
<i>Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar, tonna</i>	1205,4	1389,9	184,5
<i>Boshqa plastmassalardan (etilen polimerdan tashqari) qoplar va sumkalar, ming t.</i>	16,2	16,4	0,2
<i>Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.</i>	57,5	37,5	-20
<i>Paxta tolasi, ming t.</i>	26,2	31,4	5,2

Yanvar-noyabr oylari yirik korxonalar bo'yicha

Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati ulushi 0,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 10,9 % ga ko'paygan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,2 % gacha ko'paydi, fizik hajm indeksi esa, 181,0 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 15,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 9,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 106,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 10,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 7,0 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 740,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 123,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 14,1 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 2051,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 67,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 55,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 25,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 32,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 122,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 4,6 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2214,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2022- yil yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 105,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 %, fizik hajm indeksi 73,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 280,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yil yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 100,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 47,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 31,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish




2022- yil yakunlariga ko'ra, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 131,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,7 % ni, fizik hajm indeksi 109,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 338,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022- yil yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 52,0 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi 70,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 92,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5443,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 42,6 %) ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 117,3 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-noyabr	2023- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	15089,1	14863,7	-225,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	183,4	129,2	-54,2

yanvar-noyabr oylari yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 53,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 %) ni tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-noyabr	2023- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	36,3	35,5	-0,8
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	14,2	13,1	-1,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 55,7 % ga kamaygan hamda chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 8,1 % ga kamayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2482,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 109,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 19,4 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil
yanvar-noyabr

72,9%

2023- yil
yanvar-noyabr

76,8%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022- yil
yanvar-noyabr

27,1%

2023- yil
yanvar-noyabr

23,2%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,0 % (2022- yil yanvar-noyabr oylarida 52,5 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Guliston shahriga to'g'ri kelib 21,4 %, Yangiyer shahri 20,6 % Sirdaryo tumani 19,6 %, Sayxunobod tumani 10,3 % hamda Boyovut tumani 6,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (109,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Guliston tumani (213,9 %), Yangiyer shahri (174,3 %), Sardoba tumani (172,2 %) hamda Oqoltin tumani (144,7 %) qayd etildi.